

RAQOBATBARDOSH USTUNLIKLAR YARATISH: KORXONA SAMARADORLIGINING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna

Farg‘ona politexnika instituti, Menejment kafedrası tayanch doktoranti

shoxida.abduraxmanova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarda raqobatbardoshlik ustunliklarini yaratishning samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Resurslarning optimallashtirilgan boshqaruvi, innovatsiyalarning joriy etilishi, sifatning oshirilishi, xodimlar salohiyatining rivojlantirilishi va boshqaruv tizimining takomillashtirishi orqali tashkilotning bozordagi raqobatbardosh pozitsiyasini mustahkamlash mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada raqobatbardoshlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar, shu jumladan operatsion samaradorlik va strategik joylashuvni belgilovchi faktorlarga oid tahlillar va narx siyosatining ahamiyati o‘rganilgan. Ushbu yondashuvlar korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlash va rentabellikni oshirishning asosiy omillari sifatida baholangan. Maykl Porterning raqobatbardoshlikni boshqarish bo‘yicha besh kuch modeli hamda narhli va narhsiz raqobatning samaradorlikka ta’sirini aniqlashda xizmat ko‘rsatish sohasidagi tashkilotlar, xususan tibbiyot muassasalaridagi raqobat kurashi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *raqobatbardoshlik, samaradorlik, raqobatbardosh ustunliklar, narxli va narxsiz raqobat, Maykl porterning besh kuch modeli, rentabellik.*

СОЗДАНИЕ КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА: КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ БИЗНЕСА

Абдурахманова Шохид Равшановна

Ферганский политехнический институт, докторант кафедры менеджмента

shoxida.abduraxmanova@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется влияние создания конкурентных преимуществ на эффективность работы организаций сферы услуг. Показано, что укрепить конкурентные позиции организации на рынке можно за счёт оптимизации управления ресурсами, внедрения инноваций, повышения качества, развития потенциала сотрудников и совершенствования системы управления. В статье рассматриваются основные факторы, влияющие на конкурентоспособность, включая анализ факторов, определяющих

операционную эффективность и стратегическое позиционирование, а также значение ценовой политики. Данные подходы были оценены как основные факторы обеспечения долгосрочного устойчивого развития предприятий и повышения рентабельности. Модель пяти сил конкурентного управления Майкла Портера и влияние ценовой и неценовой конкуренции на эффективность изучались в организациях сферы услуг, особенно в медицинских учреждениях.

Ключевые слова: конкурентоспособность, эффективность, конкурентные преимущества, ценовая и неценовая конкуренция, модель пяти сил Майкла Портера, рентабельность.

CREATING COMPETITIVE ADVANTAGE: AS A KEY FACTOR OF BUSINESS PERFORMANCE

Abdurakhmanova Shokhida

Ferghana Polytechnic Institute, Doctoral student at the Department of Management

shoxida.abduraxmanova@gmail.com

Abstract: This article analyzes the impact of creating competitive advantages in service organizations on efficiency. It is shown that the competitive position of the organization in the market can be strengthened through optimized resource management, the introduction of innovations, increased quality, development of personnel potential, and improvement of the management system. The article examines the main factors affecting competitiveness, including the analysis of operational efficiency and factors determining strategic positioning, and the importance of pricing policy. These approaches are assessed as the main factors for ensuring long-term sustainable development of enterprises and increasing profitability. Michael Porter's five forces model of competitiveness management and the impact of price and non-price competition on efficiency are studied in organizations in the service sector, in particular in medical institutions.

Keywords: competitiveness, efficiency, competitive advantages, price and non-price competition, Michael Porter's five forces model, profitability.

KIRISH

Korxonaning raqobatbardoshligi bu xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining umumiy xarakteristikasi bo'lib, uning iqtisodiy resurslaridan raqobatchilarga nisbatan samarali foydalanish darajasini ifodalaydigan ko'rsatkichdir. Bu omil, ayniqsa, ijtimoiy asosiy sohalardan biri bo'lgan tibbiyot muassasalarida ham mahsulot va xizmatlar sifatini iste'molchilarning talablariga moslashtirish jarayonlarida ham muhim ahamiyatga ega. Raqobatbardoshlik har bir korxona uchun muhim ahamiyatga

ega bo‘lib, bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlash va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Globalizatsiya va iqtisodiy o‘zgarishlar tezligi sharoitida, korxonalar o‘z faoliyatini samarali boshqarish va raqobatda ustunlikka erishish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqishlari zarur. Bunday strategiyalar orasida raqobatbardosh ustunliklar yaratish, korxonaning umumiy samaradorligini oshirish asosiy vosita bo‘lib hisoblanadi. Raqobatbardosh ustunlik — bu korxonaning o‘z raqobatchilariga nisbatan afzalliklari bo‘lib, ular mahsulot yoki xizmat sifatini, innovatsiyalarni, xarajatlarni nazorat qilish, mijozlarga yuqori darajada xizmat ko‘rsatish va boshqa ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi. Davlatimiz tomonidan iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulotlar va xizmatlar ko‘rsatish bozorlarida monopoliyani bosqichma bosqich kamaytirish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalar turlarini chiqarishni o‘zlashtirish, bunga asosan ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta‘minlash kabi vazifalar belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2020 yildagi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-6019-sonli farmoni hamda 2020 — 2024-yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi [1]. Strategiyaning maqsadi biznes subyektlariga nisbatan tartibga solish yukining yuqoriligi va tarmoqni tartibga soluvchi organlarning o‘z sohasida raqobatni rivojlantirishga manfaatdor emasligi, imtiyoz va preferensiyalar taqdim etishning samarasizligi hamda raqobatga qarshi harakatlarga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlari takomillashmaganligi kabi muammolarga yechim topishdan iborat. Davlatimizning korxonalar va tadbirkorlar raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha siyosati samarali faoliyat yuritadigan bozorlarni va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish hisobiga iqtisodiy o‘sishni va innovatsiyalarni rag‘batlantirish, investitsiyalar oqimini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish hisoblanadi. Shuning uchun ham korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish mavzusi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qo‘yilgan masala bo‘yicha mavjud adabiyotlar tahlili ko‘plab tadqiqotlar olib borilayotganligini va raqobatbardoshlik strategiyalari ko‘plab yetakchi olimlar tomonidan tadqiq etilganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, xizmatlar sohasining raqobatbardoshlik strategiyalarini nazariy va uslubiy jihatlarini rivojlantirishga doir fikr mulohazalarini chet elda shu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan bir guruh olimlar M.Porter [2], F.Kotler, A.Tompson, M.B.Shifrin, L.V.Shulgina, M.J.Talasov, A.Smit va D.Rikardo, keyin esa F.Perru, A.Marshall, Dj.Keyns, V.Leontyev, Y.Shumpeter, P.Sraffa, K.H.Арабчиков [3], asarlarida bayon qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, respublikamizning bir qator olimlari N.Q.Yo‘ldoshev [4],

B.Kattakishiyev, I.Mamayusupov, U.G'afurov va boshqalarning ishlarida ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlariga asosan shu narsa ma'lum bo'ldiki, yurtimizda xizmat ko'rsatish sohasida raqobatbardoshlikni oshirishda va samaradorlikni oshirishda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etishda raqobatbardosh strategiyalarning o'rni nihoyatda ahamiyatlidir.


METODOLOGIYA

Tadqiqotning vositaviy-uslubiy apparati tizimli yondashuv doirasida tadqiqotning umumilmiy uslublari: mantiqiy va vaziyatli tahlil, so'rovnoma, ekspert baholash usullari, kuzatish, intervyu, guruhlash, taqqoslash kabi tahlil vositalarini qo'llashga asoslanadi. Raqobatbardosh ustunliklar va samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillarni chuqur o'rganish uchun korxonalarda statistika va iqtisodiy tahlil usullari yordamida raqobatbardosh ustunliklar bilan bog'liq ma'lumotlarni yig'ishdan iborat. Bu, asosan, korxonalarining samaradorligini o'lchashda yordam beradi. Ushbu vositalar tadqiqot olib borishning turli bosqichlarida turli kombinatsiyalarda foydalaniladi, yakuniy natijalar, xulosalar va takliflarni ilmiy asoslanganligini ta'minlashga imkon beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Raqobatbardosh ustunliklarni yaratish jarayoni tibbiyot muassasalarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri ekanligi tadqiqot natijalarida ta'kidlangan. Bunda, korxonalarining ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lsa, ular samaradorlikni oshirishda muvaffaqiyatga erishishi mumkin [3]. Ishlab chiqarish omillari sifatida mehnat resurslari (mehnat miqdori, sifati va narxi), tabiiy resurslar (yer, suv, foydali qazilmalar, energiya manbalari, iqlim sharoiti va geografik joylashuv), intellektual resurslar (patentlar, ixtirolar, bilimlar), kapital resurslari va infratuzilma (transport tizimi, aloqa tizimi, sog'liqni saqlash va ta'lim muassasalari, madaniyat va uy-joy muassasalari) kabilar kiradi. Agar korxonalar yuqoridagi omillar bilan yaxshi ta'minlangan bo'lsa, ularning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

Raqobatbardosh afzalliklarga ta'sir etuvchi yana bir muhim omil talab shartlari hisoblanadi. Talabni o'rganishda, uning tuzilishi, mijozlar talabi darajasi, vositachilik talabi darajasi, talab miqdori, xaridorlar soni va talabning o'sish surati kabi ko'rsatkichlar ham hisobga olinadi. Bu omillar talabning shakllanishi va o'sishiga ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, korxonalar uchun raqobatbardosh ustunliklar yaratishda muhim rol o'ynaydi.



1-rasm. Maykl Porterning 5 kuch modeli

1-rasmda ko'rsatilgan Porter tomonidan aniqlangan beshta raqobat kuchi quyidagilarni o'z ichiga oladi: yangi kiruvchilar tahdidi, yetkazib beruvchilar qudrati, mijozlar qudrati, o'rinbosar mahsulotlar tahdidi, raqobatbardoshlik darajasi. Ushbu kuchlarga qarshi turish uchun, u strategik yondashuvlar sifatida xarajatlar bo'yicha yetakchilik, farqlash va fokuslanish strategiyalarini taklif etadi. Ushbu strategiyalar biznesning o'sishi va raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo'lib, ular aniq yo'nalishlar va strategik qarorlar yordamida amalga oshirilishi kerakligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Porterning tahlillari shuni ko'rsatadiki, biznesni strategiyasiz boshqarish muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, chunki raqobatbardosh ustunlikka erishish va bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun aniq reja va yo'nalishlar zarur. Raqobat strategiyalari - bu tashkilotning bozordagi raqobatchilarga nisbatan muvaffaqiyatli raqobatlashish va raqobatbardosh ustunlikni qo'lga kiritish uchun ishlab chiqilgan kompleks rejalardir. Ushbu strategiyalar tashkilotning ichki kuchli tomonlarini maksimal darajada rivojlantirish, uning maqsad va intilishlarini amalga oshirishga yordam berish hamda raqobatchilarning kuchli tomonlarini minimallashtirishga qaratilgan qarorlarni qabul qilishni o'z ichiga oladi. Demak, strategiya, tashkilot samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan va uning uzoq muddatli maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan, shu bilan birga, potensial biznes natijalarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tizimli harakatlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlaydigan fundamental jarayondir. Porterning beshta raqobat kuchi modelini qo'llash, har bir davlat va xususiy tibbiyot muassasasining raqobatbardoshlik strategiyasini ishlab chiqishda hamda mavjud muammolarga samarali yechimlar topish jarayonida yordam beradi. Yuqori talab va mavjud tajribaga qaramay, sog'liqni saqlash tizimining raqobatbardoshligini oshirishda bir qator jiddiy

muammolar va to'siqlarga duch kelinmoqda. Ushbu muammolar orasida innovatsion texnologiyalarning yuqori xarajatlari, uzoq muddatli o'zini oqlash muddati, tibbiyot muassasalarining innovatsion rivojlanish darajasining pastligi, raqamli texnologiyalarni chuqur biladigan mutaxassislarining yetishmasligi, bemor ma'lumotlarining kiberxavfsizligini ta'minlash darajasining pastligi, shuningdek, o'sib borayotgan sog'liqni saqlash ehtiyojlarini qondirishdagi qiyinchiliklar mavjudligi sezilarli. Ushbu omillar sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini cheklab, tibbiyot muassasalarining raqobatbardoshlik darajasini pasaytiradi, bu esa o'z navbatida, sohaning innovatsion rivojlanishiga to'sqinlik qiladi [5]. Shu sababli, ushbu muammolarga qarshi kurashish va ularni bartaraf etish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari, sog'liqni saqlash muassasalarida tashqi o'zgarishlarga moslashuvchanlik va zamonaviy texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, taqsimlangan registrlar va masofaviy telekommunikatsiya xizmatlarini joriy etish darajasi ham cheklangan. Ushbu muammolarga samarali yechimlar topish uchun, har bir tibbiyot muassasasi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan, puxta ishlab chiqilgan va tizimli strategiyalarni amalga oshirishi zarur. Bu, o'z navbatida, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish va jahon bozorida raqobatbardosh ustunlikka erishish imkonini beradi [6].

XULOSA

Korxonalarda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan strategiyalarni samarali shakllantirish va boshqarish, shuningdek, raqobatbardosh ustunliklarni rivojlantirish, bevosita samaradorlikka ta'sir ko'rsatadi. Ushbu uzoq muddatli va mas'uliyatli rejalashtirish jarayonida bozordagi talab va taklifni chuqur tahlil qilish, raqobatchilarning narx siyosatini va ustunlik jihatlari sinchiklab o'rganish zarur. Bunday tahlillar asosida, korxona o'zining strategik yo'nalishlarini to'g'ri belgilab, bozor sharoitlariga mos ravishda raqobatbardosh ustunliklarini yaratishi mumkin [7]. Maykl Porterning "Besh kuch" modeli raqobatbardoshlikni boshqarishda samarali tahlil vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu model tibbiyot muassasalariga o'zlarining raqobatbardosh ustunliklarini yaratishda va tibbiyot bozoriga bo'lgan yondashuvlarini to'g'ri belgilashda muhim ahamiyatga ega. Porterning modelida har bir kuchning samarali boshqarilishi korxona yoki muassasaning strategik muvaffaqiyatiga olib keladi. Modelni tibbiyot sohasida qo'llash, ayniqsa, raqobatbardoshlikni boshqarishda quyidagi afzalliklarni taqdim etadi: Raqobatbardoshlikni tushunish va boshqarish muhimdir, chunki Porterning modelida ko'rsatilgan har bir raqobat kuchi korxonaning strategik qarorlarga bevosita ta'sir qiladi. Tibbiyot muassasasining samaradorligini oshirish uchun bozorga kirib kelayotgan yangi raqobatchilar, mavjud raqobatchilarning faoliyati, ta'minotchilarning kuchi va bemorlarning talablarini samarali boshqarish zarurdir. Agar raqobat kuchayib ketsa, muassasa o'z xizmatlarini yaxshilashga majbur

bo'ladi, chunki bu o'zgarishlar raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun zarur bo'ladi [8]. Doimiy ravishda monitoring olib borish, bozor sharoitlariga moslashuvchanlik, shuningdek, risklarni boshqarish orqali muassasa o'z strategik resurslarini optimallashtirib, bozor talablariga javob bera oladi va o'zining raqobatbardosh pozitsiyasini mustahkamlaydi. Bu jarayon, o'z navbatida, korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga erishishning asosiy omili hisoblanadi. Strategik qarorlar qabul qilishda ushbu model tibbiyot muassasasiga bozorni tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Masalan, raqobatchilarning raqobat kuchi muassasani yuqori sifatli xizmatlar taqdim etishga majbur qiladi, yangi raqobatchilarning kirish xavfi esa samarali boshqaruv va innovatsiyalarni joriy etish zaruratini yaratadi [9]. Ta'minotchilarning kuchi esa tibbiyot muassasasining uskunalari va dori-darmonlar yetkazib beruvchilari bilan hamkorligini yaxshilashni talab qiladi. Bu kabi tahlillar, muassasaga raqobatbardosh strategiyalar ishlab chiqish va ular orqali samaradorlikka erishish imkonini beradi. Undan tashqari bemorlarning talablariga moslashish va risklarni minimizatsiya qilish ham muhim tadbirlardandir. Umuman olganda, har bir korxona mijozlarni qondirish, raqobatchilardan ustun bo'lish, bozordagi imidjini oshirish va o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish uchun raqobat strategiyasini amalga oshiradi. Bu oxir-oqibatda ish faoliyatini yaxshilashga va raqobatdosh ustunlikka erishishga olib keladi [10].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2020 yildagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-6019-sonli farmoni.
2. Майкл Портер. Международная конкуренция. Конкурентные преимущества стран. Пер. с англ. – М.: Издательский дом «Интеллектуальная литература», 2021.
3. Арабчиков К.Н. Формирование конкурентоспособности предприятий частной системы здравоохранения [Текст]: автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.05 / К. Н. Арабчиков. - М., 2011. - 26 с.
4. Yo'ldoshev N.Q. (2019). Strategik menejment. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 122 b.
5. Abduraxmanova Sh.R., (2023). Tibbiyot muassasalarida raqobatbardoshlikni boshqarishni takomillashtirish. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. №9(3)-2023. ISSN:2181-1342 <https://scienceproblems.uz>.
6. Abduraxmanova Sh.R., (2023). Strategies for increasing of the textile industry in Uzbekistan. International journal of theoretical and practical research Scientific Journal. № 3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7821356>.

7. Abduraxmanova Sh.R., (2024). Strategic enhancements for managing competitiveness in medical enterprises. *European Journal of Economics, Finance and Business Development* ISSN (E): 2938-3633 Volume 2, Issue 5, May – 2024. <https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/624>.

8. Abdurakhmanova Sh.R., (2024). Innovations in competitiveness management: medical institutions perspective. *International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey* <https://econferencezone.org> May 20th 2024.

9. Ilimdorjon Jakhongirov, Nasir Mahmudov, Shokhida Abdurakhmanova, Dilnoza Ruzikulova and Sherzod Dexkanov (2024). Analyzing influential factors on healthcare expenditures. *E3S Web Conf. Volume 538, XVI International Scientific-Practical Conference “Actual Problems of Improving Farming Productivity and Agroecology” (IPFA 2024)*, <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453802016>.

10. Ilimdorjon Jakhongirov, Akmal Khudaykulov, Shokhida Abdurakhmanova and Dilnoza Ruzikulova (2024). An empirical examination of multifactor linkages for the modeling and forecasting of health care management operations. *E3S Web Conf. Volume 538, XVI International Scientific-Practical Conference “Actual Problems of Improving Farming Productivity and Agroecology” (IPFA 2024)*, <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453802030>.